# QIZLARNI OILAGA TAYYOLASHDA ETNIK STEREOTIPLAR VA PSIXOLOGIK USTANOVKALARINI O'RGANISH

**Akramova Feruza Akmalovna**
*Toshkent davlat pedagogika universiteti Umumiy psixologiya kafedrasi professori,*
**Djuxonova Noxida Xayotjonovna**
*Farg'ona davlat universiteti Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi, (PhD).*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada qizlarni oilaga tayyorlashda etnik stereotiplar va psixologik ustanovkalarini aniqlashga yo'naltirilgan ijtimoiy-psixologik yondashuvlar, shakl, metod va vositalari tashkil etilgan. Hudud qizlarini etnik stereotiplari va psixologik ustanovkalarini ijtimoiy qadriyatlari, shaxslararo emotsional va kognitiv xulq-atvor komponentlari etnik ahamiyatga ega bo'lganligi, oilaviy hayotga tayyorlik darajasining optimallashtiruvchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ekanligi isbotlangan.*

**Kalit so'zlar:** *etnik stereotip, ijtimoiy qadriyatlar, yetuklik, xo'jalik-maishiy, ota-onalik, intim-shaxsiy, ahloqiy-psixologik, motivatsiya.*

**Аннотация:** *В данной статье систематизированы социально-психологические подходы, формы, методы и средства, направленные на выявление этнических стереотипов и психологических институтов в подготовке девушек к семье. Доказано, что этнические стереотипы и психологические институты региональных девушек, социальные ценности, межличностные эмоционально-когнитивные компоненты поведения имеют этническую значимость, являются социально-психологическими характеристиками, оптимизирующими уровень готовности к семейной жизни.*

**Ключевые слова:** *этнический стереотип, социальные ценности, зрелость, хозяйственно-бытовая, родительская, интимно-личностная, нравственно-психологическая, мотивация.*

**Annotation:** *This article systematizes socio-psychological approaches, forms, methods and means aimed at identifying ethnic stereotypes and psychological institutions in preparing girls for a family. It is proved that ethnic stereotypes and psychological institutions of regional girls, social values, interpersonal emotional and cognitive components of behavior have ethnic significance, are socio-psychological characteristics that optimize the level of readiness for family life.*

**Key words:** *ethnic stereotype, social values, maturity, household, parental, intimate-personal, moral-psychological, motivation.*

Dunyoda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda oila, mehnat jamoalari, ta'lim maskanlarida sog'lom o'zaro munosabatlarni o'rnatish, psixologik muhitni barqarorlashtirish borasida ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shunday ekan, oilaviy munosabatlar, oiladagi shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik

ta'siri hamda etnik stereotiplar va psixologik ustanovkalarni oilaviy hayotga psixologik tayyorligini kompleks o'rganish, ularning hali yaxshi o'rganilmagan jihatlarini ilmiy tadqiq qilish jiddiy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2020 yil 18 fevraldagi PF-5938-son «Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmonlarda belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Har bir davlat oilani himoya qilish, ularning barqarorligini ta'minlash uchun yetarli va zarur sharoitlarni ta'minlashga harakat qiladi. Buning uchun esa qonunchilikda oilaga bag'ishlangan, uning zarurati va barqarorligini ta'minlaydigan hamda oiladagi umumbashariy qadriyatlarni saqlab qoladigan normalar belgilash muhimdir.

Oila mustahkamligini ta'minlaydigan qoidalar dunyoning ko'plab ilg'or va rivojlangan davlatlari Konstitutsiyalarida belgilangan. Bugungi kunda Konstitutsiya va joriy qonunchilikda belgilangan oilaga bag'ishlangan normalarga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, ularni takomillashtirish zarur bo'lgan ayrim masalalar ko'zga tashlanadi.

Oila deb atalmish muqaddas makon, «oila qasri»ning mustahkamligi shu qasrning poydevori bo'lmish nikoh oldi omillari xususiyatlariga, ularning qay darajada to'g'ri va mustahkam qo'yilishiga bog'liq. Agar shu poydevor yetuk, mustahkam bo'lsa, uning ustida qurilgan imorat ham ko'rkam, yorug', unda istiqomat qiluvchilarga qulaylik, xotirjamlik, tinchlik, huzur-halovat bag'ishlaydigan bo'ladi.

Oilaning tinchlik-xotirjamligi va saodatini ta'minlash oiladagi har bir shaxsning o'z mas'uliyatini his qilishi va bajarishi bilan barqaror bo'ladi. Jamiyatning kelajagi porloq, katta imkoniyatlarga ega bo'lishi uchun, avvalo, uning ajralmas negizi oilalarning ma'nan sog'lomligi talab qilinadi. Bu esa quyidagi shartlarga rioya qilinishiga bog'liq:

- oilaning bir-biriga munosib odamlardan tashkil topishi
- er-xotin orasidagi o'zaro hurmat va totuvlik
- erkak kishi o'zining oila ustuni ekani hamda rahbarlik mas'uliyatini his etishi va bunga amal qilib yashashi
- ayol kishining oila ichki holatlarga mas'ulligi
- ota-ona farzandlarining rioyasini qilib, ularga adolatli bo'lishlari
- farzandlarning ota-onaga yaxshilik qilishlari.

Ana shu shartlarga rioya qilinsa, oilada sog'lom muhit vujudga kelib, tarbiya topayotgan farzandlar odob-axloqli, el-yurtga xizmat qiladigan insonlar bo'lib voyaga yetadilar. Qur'on va hadislar nikoh qurish, farzand ko'rish, balog'atga yetish, oilaviy hayot va o'lim singari insonlar hayotidagi muhim voqealarda nima qilinishi zarurligini ko'rsatadi.

Oilaga nisbatan islom dinining bunday nuqtayi nazari Qur'onning oilaviy munosabatlarga taalluqli asosiy printsiplardan kelib chiqadi. Nikoh munosabatlarining to'g'ri boshlanish muvaffaqqiyat va ularning xotirjam yuksalishining garovi bo'lishi muhimligini anglash zarur. Qur'onda nikoh sunnatning bir qismi ekanligini eslatadi va uning eng yaxshi misollarini ko'rsatish uchun Alloh payg'ambarlarni tanlagan: "Darhaqiqat, sizdan ilgari ham (ko'p) payg'ambarlar yuborganmiz va ularga juftlar va zurriyotlar berganmiz"(Ra'd surasi). Muborak hadislarimizda ham payg'ambarimiz Muhammad s.a.v. shunday deydilar: "Nikoh mening an'anamdir, bu an'anadan yuz o'girgan kishilar men bilan emasdur"[17]. Darhaqiqat, islom dinida nikoh - bu farzandlar tarbiyalash va baxtli oila qurish uchun o'zaro yordam, samimiylik va sabr-matonatlilik prinsiplariga tayangan holda bir-birini sevadigan va xohlaydigan erkaklar va ayollarning birgalikda yashashidir. Aynan mana shu fikrlar Qur'oni Karimda aniq tarzda tasvirlanadi: "U zot sizlar hamdam bo'lishlaringiz, o'zlaringizdan juftlar yaratish va o'rtkaringizda oshnolik va mehr-muhabbat paydo qilishdir. (Rum surasi)[18].

Britaniyalik psixolog A.Teshfel stereotiplar nafaqat shaxsning qadriyatlarini, balki uning ijtimoiy o'ziga xosligini ham himoya qilishga qodir ekanligini ta'kidladi [Tajfel, 1981]. Shundan kelib chiqib, stereotipning asosiy ijtimoiy-psixologik funktsiyalari guruhlararo differentsiatsiya yoki ko'pincha o'z guruhi foydasiga baholovchi taqqoslash va uning yordami bilan amalga oshiriladigan ijobiy ijtimoiy o'ziga xoslikni saqlash deb hisoblanishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, stereotiplarning maqsadi guruhning munosabatlarini, birinchi navbatda, boshqa guruhlar bilan emas, balki o'z ichida o'rnatish, uning a'zolariga tarix girdobida o'zlarini aniqlashga imkon beradigan tasvirni yaratishdir. Keling, klassikani eslaylik: "biz qul emasmiz, qullar biz emasmiz". Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy stereotiplarning "yagona vazifasi" ramziy, ammo ijtimoiy hamjamiyatning yaxlitligini ta'minlashdir[19].

Boshqacha qilib aytganda, stereotiplarning mazmuni psixologik emas, balki ijtimoiy omillar bilan belgilanadi. Va bu hukmronlik va bo'ysunishga asoslangan guruhlararo munosabatlarning barqarorligiga hissa qo'shadigan, stereotipning o'zi mexanizmi emas, balki aynan dushmanlik, xurofotli stereotiplardir. Boshqa tomondan, etnik stereotiplar ko'pincha shaxs tomonidan shaxslararo idrok jarayonida ma'lum bir aloqa sherigi haqida ma'lumot etishmasligi bilan foydalanilganda salbiy rol o'ynaydi.

Tadqiqotimizda "Nikohga nisbatan individual motivatsiyani o'rganish" deb nomlangan metodikamizni har ikki guruh: o'zbek va qirg'iz qizlarida mavjud bo'lgan oilaviy rollarga nisbatan ijobiy (salbiy) ustanovkalar aniqlandi. Bunda har qanday motivatsiyani tahlil qilish mushkul bo'lganligi uchun juftli taqqoslash texnikasidan foydalanildi, ya'ni xo'jalik-maishiy, ota-onalik, intim-shaxsiy, ahloqiy-psixologik kabilar.

[17] https://azkurs.org/urganch-davlat-universiteti-filologiya-fakulteti.html?page=6
Кароматов Ҳ. Ўзбек адабиётида Қуръон мавзулари (адабий-тарихий таҳлил): филол.фан.д-ри дис. автореф. -Тошкент, 1993

[18] Ўша манба

[19] https://psyfactor.org/lib/stereotype8.htm

"Nikohga nisbatan individual motivatsiyani o'rganish" bo'yicha natijalarning tahlili

F- Farg'ona; A- Andijon; *p<0,05

Mazkur juftli taqqoslashdan olingan natijalarda ahamiyatli farqlar aniqlandi. Bunga sabab ikki hudud qizlarida ya'ni, Farg'ona va Andijon respondentlarida xo'jalik-maishiy, ota-onalik, axloqiy-psixologik shkalalari bo'yicha o'rtacha arifmetik qiymatlari o'rtasida statistik jihatidan ahamiyatli farq aniqlanmadi. *p<0,05, t=-1,20, t=-1,95*, t=-1,59. Farg'ona va Andijon oilalarida xo'jalik yuritishda, maishiy turmushda, ota-onalik vaziflarini bajarishda, ahloqiy-psixologik shaxsiy fazilatlarida, ahloqiy me'yorlarda, etnik stereotiplarida, psixologik ustanovkalarida o'xshashliklar mavjud ekanligi, shuningdek, har ikki hudud qizlarining yashash imkoniyatlarini inobatga olib, ulardagi ayrim milliy urf-odatlar, milliy qadriyatlar hamda yashash sharoitlarining o'hshashligi, har ikki millat oilalarining yaqin qarindosh bo'lib bog'lanayotganligi, etnik stereotiplarning uyg'unlashayotganligi, psixologik ustanovkalarning atrof muhitga qarab singdirilayotganligi bunga sabab bo'lishi mumkin. Chunki Farg'ona va Andijon hududidagi qizlarda yuqori darajada oila baxti uchun ayol: muloqotda faollik, ma'lumotli bo'lish, zukkolik, jamoada u bilan zerikmaslik, mustaqil pul topa oladigan bo'lish kabi sifatlarning ma'qulligi ko'rsatilgan. Bu javoblarni tahlil etadigan bo'lsak, Farg'ona va Andijon hududidagi qizlarga nikoh qurish motivining ustunligi nikohga bo'lgan ehtiyojni qondirishga yo'naltirilgan xulq-atvor bo'lib, nikoh juftini tanlash bilan bog'liqligi aniqlandi. Ya'ni ikki hududga mansub qizlarda nikohiy saralash va individual motivatsiyani o'rganish deb nomlanuvchi jarayon natijasida nikoh uchun juftini tanlash, mavjud bo'lgan nikoh juftligiga nomzodlar orasidan u yoki bu usul orqali yagona sherik tanlanishi va bu sherik keyinchalik «er» yoki «xotin» bo'lishligi kuzatildi. Chunki o'zbek va qirg'iz qizlarida nikoh juftini tanlash tarixan konkret jarayon bo'lib, u jamiyatda mavjud bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy, sotsiomadaniy va boshqa shart-sharoitlarga bog'liqligi mavjud. Nikoh juftini tanlashning asosiy xususiyatlari turli madaniyat va tarixiy rivojlanishning turli bosqichlarida tanlashning imkoniy makoni va individual tanlash erkinligi darajasi bilan bog'liqligi kuzatildi.

| | Ho'jalik-maishiy | | Ota-onalik | | Intim-shaxsiy | | Ahloqiy-psixologik | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Daraja** | F | A | F | A | F | A | F | A |
| O'rtacha | 1,73 | 1,87 | 7,40 | 7,70 | 2,27 | 2,01 | 3,06 | 3,28 |
| Dispersiya | 1,39 | 1,76 | 2,89 | 2,49 | 1,35 | 1,35 | 1,88 | 2,83 |
| n | 529 | | 529 | | 529 | | 529 | |
| t | -1,20 | | -1,95* | | 2,47* | | -1,59 | |

Kiyingi natija bo'yicha ya'ni, intim-shaxsiy shkalasi bo'yicha Farg'ona va Andijon hududlari bo'yicha o'rtacha arifmetik qiymatlari o'rtasida statistik jihatidan ahamiyatli farq aniqlandi. *p<0,05, t=-2,47*. Bunga ko'ra Farg'ona hududida yashovchi oila qizlari Andijon oilasidagi qizlardan ko'ra, intim-shaxsiy shkala bo'yicha berilgan ularda

oilada o'zaro shaxslararo munosabatlar, munosabatlarda bir-biriga suyanish, ishonish, intim-shaxsiy munosabatlarda sog'lom raqobatning mavjudligi aniqlandi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, har ikki hududda qizlarida yashab turgan muhitlarining etnik stereotiplari hamda psixologik ustanovkalari shakllanib bo'lganligi, ularda yashash sharoitlarining o'xshashligi ota-onaga nisьatdan qadriyatlarning mavjudligi ushbu mavzuni yoritib bera oladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:


1. Mirziyoev SH.M. «Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz».- T.: «O'zbekiston»-2016 yil.
2. Mirziyoev SH.M. «Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz».- T.: «O'zbekiston»-2017 yil.
3. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992. – 160 b.
4. Akramova, F. (2021). MAIN PROBLEMS OF PROVIDING PSYCHOLOGICAL SERVICE TO THE FAMILY. Science and Society, 2020(4), 105-107.
5. Akramova, F.A. (2020). Main requirements psychological service for families. European Journal of Research and Reflection in Educational Science, Great Britain Progressive Academic Publishing.[Electronic resource], 16-18.
6. Akramova, F.A. (2020). The divorce factors of families and psychological service to the family. International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA, 81(01).
7. Акрамова, Ф.А. (2020). ПРЕДНАЗНАЧЕНИЕ И СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ СЕМЬИ В УЗБЕКИСТАНЕ. Научные исследования XXI века, (3), 319-322.
8. Акрамова, Ф.А. (2020). Психологические особенности готовности старшеклассников к семейным отношениям. Социальная педагогика, (3), 44-47.
9. Акрамова, Ф.А. (2019). Ўзбекистонда оилавий психологик хизматнинг ижтимоийпсихологик муаммолари. Монография. Т.: ООО “NORI” МЧЖ, 186.
10. Akramova, F. (2021). MAIN PROBLEMS OF PROVIDING PSYCHOLOGICAL SERVICE TO THE FAMILY. Science and Society, 2020(4), 105-107.
11. Akramova, F.A. (2021). Psychological service and models of psychological assistance family as a necessary factor of family strengthening. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 1574-1579.
12. KHALIMBOYEVA, F., & VOSILJONOV, A. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR DIQQATINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSINI NAZARIY O'RGANILISHI. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(5), 94-98.

13. Akramova F.A. Socio-psychological problems early marriage in Uzbekistan // Theoretical & Applied Science International Scientific Journal, Year: 2020 Issue: 06 Volume: 86 Published: 30.06.2020 p. 405-415. (19.00.00.№ 3).

14. Dzhukhonova, N. (2023). STUDYING ETHNIC STEREOTYPES AND PSYCHOLOGICAL STANDARDS IN PREPARING GIRLS FOR A FAMILY. Science and innovation, 2(B5), 13-16.

15. Djuxonova, N. (2023). QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI (O 'ZBEK-QIRG 'IZ OILALARI MISOLIDA). " ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал, 1(3).

16. Djuxonova, N., & Qovlonbekov, A. (2023, February). OILAVIY NIZOLAR VA ULARNING TAVSIFI. In Conference Zone (pp. 289-296).

17. Dzhukhonova, N. (2022). STUDYING ETHNIC STEREOTYPES AND PSYCHOLOGICAL STANDARDS IN PREPARING GIRLS FOR A FAMILY. Science and innovation, 2 (B5), 13-16.

18. Djuxonova NX, Ergasheva Z. YOSH OILALARNING IJTIMOIY VA PSIXOLOGIK MUAMMOLARI. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(11), 128-135.

19. qizi Tohirova, M.Z., & Djuxanova, N.H. (2022). OILADAGI TARBIYANING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI. Innovative Development in Educational Activities, 1(6), 102-106.

20. Xayotjonovna, D. N., & Eshonqulova, G. (2022). OILADA FARZAND XULQ-ATVORINI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(9), 446-451.

21. Noxida, D., & Saida, Q. (2022). TALABA QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(11), 309-314.

22. Мамажонова, Ш., & Джуханова, Н. (2021). Nutqida nuqsoni bor bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlari. Общество и инновации, 2(6/S), 205-210.

23. Djuxonova, N. (2021). Badiiy adabiyotlarda psixolingvistikaning qo 'llanilishi. Журнал иностранных языков и лингвистики, 2(6).

24. Джухонова, Н. Х., & Мамажонова, Ш. (2021). МАҲАЛЛА-ҚИЗЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ СИФАТИДА. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, 4(7).

25. Rustamovna, A. A., & Noxida, D. (2021). Ethnopsychological features of the preparation of student girls for family life. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 974-979.

26. Джухонова, Н.Х., & Иброхимов, Д. (2021). Этнопсихологические особенности подготовки девушек-студенток к семейной жизни. Scientific progress, 2(4), 829-835.

27. Djuhonova, N. (2020). Preparing students for family life as a pedagogical and psychological problem. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 68-71).

28. Djuhonova, N. (2020). Preparing students for family life as a pedagogical and psychological problem. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 68-71).

29. Qurbonova, B., & Djuhanova, N. (2020). PSYCHOPHYSIOLOGICAL BASIS OF COLOR SELECTION IN YOUNG PEOPLE. Theoretical & Applied Science, (1), 27-37.

30. Djuhonova, N.H. (2020). PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL PROBLEMS OF PREPARING STUDENTS FOR FAMILY LIFE. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 401-404).

31. Djuhonova, N. H. (2020). PREPARING YOUNG PEOPLE FOR FAMILY LIFE ON THE BASIS OF A HEALTHY LIFESTYLE. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 397-400).

32. Dzhukhonova, N. (2023). STUDYING ETHNIC STEREOTYPES AND PSYCHOLOGICAL STANDARDS IN PREPARING GIRLS FOR A FAMILY. В THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES (Т. 2, Выпуск 20, сс. 25–31).

33. Солиев, Ф. С., Абдуллаева, А. Р., & Джухонова, Н. Х. (2019). Формирование психологической культуры и этноценностных ориентаций студенческой молодежи. Психологическое благополучие современного человека (pp. 334-339).

34. Isakova, M., & Xaydaraliyev, A. (2023). YUQORI SINF O‘QUVCHILARIDA KASB TANLASH MOTIVLARINING O‘RGANILISHI. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(6 Part 2), 16–20.

35. M.Isakova, & A.Xaydaraliyev. (2023). YUQORI SINF O‘QUVCHILARIDA KASB TANLASH MOTIVLARINING O’RGANILISHI. Scientific Impulse, 2(13), 53–59.

36. Isakova, M. T. (2021). Socio-Psychological aspects of A Person's attitude to his mental health. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(4), 29-36.

37. Исакова, М.Т. (2021). Эмпирическое исследование взаимосвязи отношения личности к здоровью с индивидуально-динамическими характеристиками. П, 86, 544.

38. Исакова, М. Т. (2021). Инсоннинг саломатликка муносабати билан унинг индивидуал-динамик хусусиятларининг ўзаро боғлиқлик муаммолари. Современное образование (Узбекистан), (7 (104)), 42-47.

39. Tulkinovna, I. M. A. (2021). An Empirical Study Of The Relationship Of Individual With Dynamic Characteristics As A Value To Health. European Journal Of Research And Reflection In Educational Sciences, 9(5).

40. Исакова, М. Т. (2021). Problems Of The Relationship Of A Person's Attitude To Health With Its Individual And Dynamic Features. Современное образование (Узбекистан), (7), 42-48.

41. Исакова, М. Т. (2021). Problems Of The Relationship Of A Person's Attitude To Health With Its Individual And Dynamic Features. Современное образование (Узбекистан), (7), 42-48.

42. Исакова, М.Т. (2021). ИНСОННИНГ САЛОМАТЛИККА МУНОСАБАТИНИНГ ИНДИВИДУАЛ ДИНАМИК ХУСУСИЯТЛАРИ МУАММОСИНИ ЭМПИРИК ЎРГАНИШ. Современное образование (Узбекистан), (8 (105)), 45-52.

43. Isakova, M. (2020). Socio-Psychological Factors Are The Effect Ofperson's Mental Health. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(3), 4699-4718.

44. Isakova, M. T. (2020). Factors Influencing The Mental Health Of Person. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 10-13).

45. Isakova, M. T., & Israilzhonov, S. (2020). Theoretical Interpretation Of Some Considerations On Mental Health. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 25-28).

46. Максимова, Л. А., & Исакова, М. Т. (2020). Человек как субъект социокультурного пространства: оценка жителями Узбекистана уровня влияния социокультурных факторов на их психическое здоровье. In Стратегические ориентиры современного образования (pp. 40-43).

47. Исақова, М. Т., & Максимова, Л. А. (2020). РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ ВЛИЯНИЯ ДОСУГА И МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПСИХИЧЕСКОЕ ЗДОРОВЬЕ ЛИЧНОСТИ В СОЗНАНИИ ЖИТЕЛЕЙ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ. In АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ ПСИХОЛОГИИ, КОНФЛИКТОЛОГИИ И УПРАВЛЕНИЯ: ВЗГЛЯД МОЛОДЫХ ИССЛЕДОВАТЕЛЕЙ (pp. 79-85).

48. Исакова, М. Т. (2019). факторы творческого мышления когнитивного развития дошкольников. In Психологическое благополучие современного человека (pp. 627-630).

49. Исакова, М.Т. (2018). СВЯЗЬ ВЫБОРА ПРОФЕССИИ С АСТРОЛОГИЧЕСКИМИ ФАКТОРАМИ. Мировая наука, (6 (15)), 213-215.

50. Исакова, М.Т. (2012). ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВОЗДЕЙСТВИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ТРАДИЦИЙ НА ПСИХИКУ ЧЕЛОВЕКА, ПОНЕСШЕГО УТРАТУ БЛИЗКОГО ЧЕЛОВЕКА. ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА, 17(3-4), 24-26.

51. Исакова МТ. ЭМОЦИОНАЛЬНАЯ И ПСИХОФИЗИОЛОГИЧЕСКАЯ СФЕРЫ ЧЕЛОВЕКА. Известия ВУЗов (Кыргызстан). 2012(2):242-4.

52. Исакова, М.Т. (2011). ДИАЛОГИЧЕСКАЯ РЕЧЬ КАК ЭМОЦИОНАЛЬНЫЙ АСПЕКТ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ ЯЗЫКОВОГО ФАКУЛЬТЕТА. ББК 81.2 Р Ж 71, 22, 261.

53. Tulkinovna, I. M. THE ROLE OF THE FAMILY ENVIRONMENT IN THE PROTECTION OF HUMAN MENTAL HEALTH.

54. Isaqova, M. T. (2007). Etnopsixologiya. Toshkent: Iqbol-Turon.

55. Isakova Muazzam To'lqinovna //Additional Learning is as a Factor of Mental Health// International Journal of Psychosocial Rehabilitation. Vol. 24, Issue 05, 2020. 7330-7335 pages.

56. Исакова М.Т. //ГЕНДЕРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ ВЕДУЩИХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ МЕЖДУ ОТНОШЕНИЕМ К ЗДОРОВЬЮ И ИНДИВИДУАЛЬНО-ДИНАМИЧЕСКИМИ ХАРАКТЕРИСТИКАМИ// ВЕСТНИК ИНТЕГРАТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ. 2021, Выпуск 23. 144-149 стр.

57. M.T.Isakova //SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF A PERSON'S ATTITUDE TO HIS MENTAL HEALTH// Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). Vol 10, Issue 4, April, 2021. 29-36 pages.

58. Исакова М.Т //Инсон рухий саломатлигининг ижтимоий-психологик омиллари// Монография. Тошкент 2021.

59. Исакова Муаззам Тўлқиновна //ДИНИЙ ЭЪТИҚОД ШАХС РУХИЙ САЛОМАТЛИГИНИНГ ОМИЛИ СИФАТИДА// "PSIXOLOGIYA" ILMIY JURNAL. Maxsus son, № 2, 2020. 68-72 бетлар.

60. M.T.Isakova //DAVLAT BOSHQARUVI VA SHAXS RUHIY SALOMATLIGI// PSIXOLOGIYA ILMIY AXBOROTNOMA. 2020-yil, 4-son. 158-162 betlar.

61. Isakova Muazzam Tulkinovna //HUMAN HEALTH AND PSYCHE// ELECTRONIC JOURNAL OF ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND TRAINING. OCTOBER, 2020-V. ISSN 2181-9750. 40-46 pages.

62. M.T.Isakova //OILA MUHITI RUHIY SALOMATLIKNING OMILI SIFATIDA// PSIXOLOGIYA ILMIY AXBOROTNOMA. 2021-yil, 2-son. 127-134 betlar.

63. Isakova Muazzam Tulkinovna //DEPENDENCE OF A PERSON'S ATTITUDE TO HEALTH ON AGE CHARACTERISTICS// ELECTRONIC JOURNAL OF ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND TRAINING. JULY, 2021-7/2. ISSN 2181-9750. 34-40 pages.

64. Исакова Муъазам Тулкиновна //ИНСОННИНГСАЛОМАТЛИККА МУНОСАБАТИНИНГ ИНДИВИДУАЛ ДИНАМИК ХУСУСИЯТЛАРИ МУАММОСИ ВА УНИ ЭМПИРИК ЎРГАНИШ// ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ. 2021,8 (105). 45-52 бетлар.

65. М.Т.Исакова //ЭМПИРИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ВЗАИМОСВЯЗИ ОТНОШЕНИЯ ЛИЧНОСТИ К ЗДОРОВЬЮ С ИНДИВИДУАЛЬНО-ДИНАМИЧЕСКИМИ ХАРАКТЕРИСТИКАМИ// Психология управления персоналом и экосистема наставничества в условиях изменения технологического уклада. Вторая международная научно-практическая конференция. 11-12 ноября 2021 г., Нижний Новгород. 598-606 стр.

66. Исакова М.Т //ШАХС РУХИЙ САЛОМАТЛИГИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР// АҲОЛИНИНГ ПСИХОЛОГИК САЛОМАТЛИГИ - ЖАМИЯТ ФАРОВОНЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ СИФАТИДА ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ОНЛАЙН АНЖУМАНИ. Фарғона. 20.05.2020. 5-9 бетлар.

67. Исақова М.Т. //БАНДЛИК ШАХС РУХИЙ САЛОМАТЛИГИНИНГ ОМИЛИ СИФАТИДА// Минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-ҳуқуқий ва инновацион жиҳатлари: халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами. 27 май 2020 йил. Москва. 714-717.

68. Исакова М.Т. //ИЖТИМОИЙ НАЗОРАТНИНГ ПСИХОЛОГИК МЕХАНИЗМЛАРИ БОРАСИДА АЙРИМ ФИКРЛАР// АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИИ УЗБЕКИСТАНА. Конференция, Ташкент-2018. 79-81 бетлар.